

QO‘YLAR DIKTIOKAULYOZINING TARQALISHI BO‘YICHA RESPUBLIKAMIZNING AYRIM HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR

Sharipova L.Sh.

Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda Respublikamizda aholi jon bosh sonining oshib borayotganligi chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabni ham oshirib bormoqda.

Ma'lumki, chorvachilikni asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan qo'ychilik tarmog'ini rivojlantirish aholini qo'y go'sht, va go'sht mahsulotlariga, sanoatni esa sifatli teri, jun, tivitga bo'lgan talabini yanada oshirishda qo'ylarda uchraydigan turli xil kasalliklari, jumladan gelmintozlar, jiddiy to'siq bo'lib hisoblanadi va ular sezilarli zarar yetkazadi.

O'zbekiston va umuman Markaziy Osiyoning o'ziga xos geografik-iqlim xususiyatlari – bahor va kuz oylarida havoning iliq va namgarchilik yetarli bo'lishi, qish mavsumi ham o'ta sovuq bo'lmasligi, hatto qish oylarida vaqt-vaqti bilan iliq kunlar kuzatilishi ko'pgina xavfli parazitlar kasalliklarni keng tarqalishiga qulay sharoit yaratadi.

Ayniqsa, oxirgi yillarda yuzaga kelgan chorvachilik xo'jaliklarining shakli va chorvachilik yuritish texnologiyasidagi o'zgarishlar, ya'ni yirik chorvachilik xo'jaliklari (kolxoz, sovxoz) o'rniga fermer, dehqon va aholi xo'jaliklarining paydo bo'lishi gelmintoz kasalliklarining epizootologiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli ham bugungi kunda qo'ylar gelmintozlar tarqalishini turli xo'jalik yuritish shakllarida va turli iqlim-geografik hududlarda o'rganish, ularga qarshi davolash profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish, bugungi epizootik holatdan kelib chiqib, yangi hozirgi sharoitlarga mos keladigan tadbirlar va tizimli choralarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, qo'ylarning gelmintoz kasalliklardan biri diktiokaulyoz kasalligi bo'lib, qo'ylar orasida surunkali kechish xarakteriga ega bo'lib, kasallikni *Dictyocaula filaria*-nematodalarning qo'ylarning bronx va traxeyasida tekinxo'rlik qilishi oqibatida kelib chiqadi [1].

Qo'ylar diktiokaulyozi butun dunyoda, jumladan, O'zbekiston sharoitida ham keng tarqalgan bo'lib, bizning respublikamizda ushbu kasallik keyingi 50-60 yilda o'rganilmagan, o'tgan asrning 60-70 yillarda qo'ylar diktiokaulyoz qorako'lchilik sohasi rivojlangan hududlarimizda qorako'l qo'ylarida o'rganilgan [1,2].

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, Respublikamizning ayrim hududlarida turli xil xo'jalik yuritish shakllari (aholi va fermer)da turli zotli qo'ylarda diktiokaulyozni tarqalishini o'rganishni maqsad qildik.

Tekshirish usuli va joyi. Respublikamiz turli hududlaridan turli xo'jalik yuritish shakllarida parvarish qilinayotgan qo'ylardan tezak namunalari olinib, gelmintokoprologik tekshirishlar o'tkazildi.

Xususan, Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanidagi "Eldo'st" fermer xo'jaligi arashan zotli qo'ylaridan 36 ta, Zangiota tumanidagi "Sherzod YaTT"ga

qarashli *jaydari zotli* qo‘ylardan 18 ta, Ohangaron tumanidagi “XM Xolturayev Oybek” fermer xo‘jaligi *histori zotli* qo‘ylaridan 42 ta, Samarqand viloyati Tayloq tumani Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya *жайдапу зотли* qo‘ylaridan 20 ta, Urgut tumani aholi qo‘lidagi *jaydari zotli* qo‘ylardan 25 ta, Samarqand tumani “Yangi Ariq” fermer xo‘jaligi *jaydari zotli* qo‘ylardan 22 ta, Buxoro viloyati Jondor tumani aholi qo‘lidagi *qorako‘l zotli* qo‘ylardan 75 ta, Navoyi viloyati Nurota tumani “Zarolmos qorako‘l” fermer xo‘jaligi qorako‘l zotli qo‘ylaridan 75 ta tezak namunalari jami 314 bosh qo‘ylardan olingan tezak namunalari gelmintolarvoskopik tekshirishdan o‘tkazildi.

Olingan namunalar tekshirish jarayonlari Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti gelmintologiya laboratoriyasida hamda Veterinariya dori vositalari, ozuqabop qo‘shimchalar sifati va muomolasi nazorati bo‘yicha Ilmiy markazining laboratoriyasida olib borildi.

Tekshirish Berman-Orlov usulining oddiyashtirilgan O‘zVITI usulida olib borildi. Buning uchun hajmi 100-200 ml. keladigan shisha stakan olinib, 37-38°C li iliq suv bilan to‘ldirildi, so‘ngra hayvon tezigidan 5 gr. olinib dokaga o‘raldi va tezak o‘ralgan dokani tayoqchaga ildirib stakandagi iliq suvga solib qo‘yildi. Ushbu namuna suvda 1 soat ushlab turildi. So‘ngra esa dokadagi tezak stakandan olib tashlanib, 30 daqiqa tindirildi va ustki qismi to‘kib tashlanib qoldig‘i Petri likobchasiga qo‘yildi va mikroskop ostida tekshirildi [3]. Bu tekshirishda diktiokaula lichinkalari mikroskop ostida ilonsimon harakatda bo‘ldi.

Tekshirish natijalari. Tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, respublikamiz hududlarida nematodalar xususan qo‘ylarning nafas olish tizimida parazitlik qiluvchi gelmintlarga qarshi olib borilayotgan davolash va profilaktik chora-tadbirlarga qaramasdan, qo‘ylar orasida diktiokauliyoz kasalligi birmuncha keng uchrashi aniqlandi.

1-jadval

Respublikamizning ayrim hududlarida qo‘ylar diktiokauliyoz bilan zararlanish darajasi (gelmintolarvoskopiya usuli)

Hudud nomi	Jami tekshirilgan qo‘ylar bosh soni	Diktiokauliyoz bilan zararlangan qo‘ylar	
		bosh	foiz
Toshkent viloyati			
Yuqori Chirchiq tumani “Eldo‘st” fermer xo‘jaligida	36	3	8,6
Zangiota tumani “Sherzod YATT”	18	9	50,0
Ohangaron tumani “XM Xolto‘rayev	42	15	35,7

Oybek” fermer xo‘jaligida			
Samarqand viloyati			
Tayloq tumani O‘zVITI laboratoriyasi	20	3	15,0
Urgut tumani aholi qo‘lidagi	25	2	8,0
Samarqand tumani “Yangi Ariq” fermer xo‘jaligi	22	1	4,5
Buxoro viloyati			
Jondor tumani aholi qo‘lidagi	75	7	9,3
Navoiy viloyati			
Nurota tumani “Zarolmos qorako‘l” fermer xo‘jaligi	74	3	4,0
Jami	314	43	12,5

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, gelminolarvoskopik tekshirilgan 314 bosh qo‘ylarning 43 tasi yoki 12,5 foizi diktiokulyoz bilan zararlanganligi aniqlandi.

Xususan, Yuqori Chirchiq tumanidagi “Eldo‘st” fermer xo‘jaligida tekshirilgan 36 bosh qo‘ylarning 3 tasi yoki 8,6 foizi, Zangiota tumanidagi “Sherzod YATT” (Yakka tartibdagi tadbirkor) qaromog‘idagi 18 bosh qo‘ylarning 9 tasi yoki 50 foizi, Oxangoron tumanidagi “XM Xolto‘rayev Oybek” fermer xo‘jaligida tekshirilgan 42 bosh qo‘ylarning 15 tasi yoki 35,7 foizi diktiokulyoz bilan zararlanganligi ma‘lum bo‘ldi.

Samarqand viloyati O‘zVITI laboratoriyasi 20 bosh qo‘ylarining 3 boshida yoki 15 foizida, Urgut tumani aholi qo‘lidagi 25 bosh qo‘ylarning 2 boshi yoki 8 foizida, Samarqand tumani “Yangi Ariq” fermer xo‘jaligi 22 bosh qo‘ylaridan 1 boshi yoki 4,5 foizida, Бухоро вилояти Jondor tumani aholi qo‘ylaridan olingan 75 ta qo‘ydan olingan tezak namunalarida 7 bosh qo‘yda yoki 9,3 foizida qo‘ylar diktiokulyozi bilan zararlanish aniqlandi.

Navoiy viloyati Nurota tumani “Zarolmos qorako‘l” fermer xo‘jaligi qorako‘l qo‘ylaridan 75 boshidan olingan tezak namunalari tekshirilganda esa 3 bosh qo‘ylardan yoki 4,0 foizida diktiokulyoz bilan zararlanish aniqlandi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, qo‘ylarning diktiokulyoz bilan zararlanganlik darajasi Navoiy viloyatida boshqa viloyatlarga qaraganda past zararlanish aniqlangan bo‘lsa, eng yuqori zararlanish Toshkent viloyati tumanlarida qayd etildi.

Xulosalar. Olib borilgan tadqiqotlarimizga ko'ra, turli hudud va xo'jalik yuritish shakllarida arashan, jaydari va qorako'l zotlariga mansub qo'ylarning 12,5 foizi diktiokulyoz bilan zararlanganligi qayd etildi. Qo'ylarning diktiokulyoz bilan zararlanishi Toshkent viloyatida hisori, arashan va jaydari zotli qo'ylarda 31,4 foizni, Samarqand viloyatida jaydari zotli qo'ylarda 9,1 foizni, Buxoro va Navoiy viloyatida qorako'l zotli qo'ylarda mos ravishda 9,3 va 4,0 foizni tashkil etdi. Tadqiqotlarimizda qo'ylarning diktiokulyoz bilan turlicha zararlanganligi qo'ylarning saqlash, oziqlantirish, boqish, gelmintozlarga qarshi davolash va profilaktik tadbirlariga, shuningdek, hududlarning iklimiga, yil fasliga, qo'ylar yoshiga, zotiga va ularning kasalliklarga tabiiy chidamliligiga bog'liq deb hisoblaymiz.

Tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlarga kelgusida qo'ylar diktiokulyozi tarqalishini kengroq o'rganish bilan birga kasallikka qarshi davolash va profilaktik chora-tadbirlarini takomillashtirish zarurligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. И.Х. Иргашев “Гельминты и гельминтозы каракульских овец” Тошкент-1973 йил 14-53б.

2. З.Холикова “Диктиокаулез овец в Узбекистане” (клиника и потоморфологическая картина при экспериментальном диктиокаулезе каракульских овец) автореф. дис. канд. вет наук. Самарканд-1969. с.15-20.

3. А. О. Орипов, А. Ф. Гофуров, Н. Э. Йўлдошев, Ш. А. Джаббаров, Р. Б. Давлатов, М. Э. Гоипова “Қишлоқ хўжалик ҳайвонларининг паразитология ва инвазион касалликлари” Дарслик, Тошкент-2023 йил 52-158б.

BUZOQLAR KINDIK DABBASINI XIRURGIK YO'L BILAN DAVOLASH

Narziyev B.D.¹, Bekmuratov K.R.².

¹Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

²Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada kindik dabbasi bilan kasallangan buzoqlarni xirurgik davolash (operatsiyagacha) va davolashdan keyingi ma'lumotlari, klinik belgilari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tajribalar 6 bosh 1 oylikdan 8 oylikgacha bo'lgan kindik dabbasi guzatilgan buzoqlarda olib borildi, klinik belgilari kuzatib borildi.

Kalit so'zlar. kindik dabbasi, xirurgik davolash, buzoq, tug'ma, ortirilgan, konservativ, anatomik,

Kirish. Respublikamizda mustaqillik yillarida charvachilikni sanoat asosiga o'tkazilishi, fan va texnikaning zamonaviy yutuqlari chorvachilikni sezilarli darajada oshirish uchun yangi imkoniyatlar eshigini oshdi. Bugungi kunda veterinariya amalyotida yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning oldini olish muhim ahamiyatka ega. Chorvachilikda amaliy faoliyat natijalari veterinariya fanining